



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

- pedagogik jarayonda ustozning ibрати va shogirdning itoati asosiy tamoyil sifatida qaralishi kerak. Ustozlar faqat bilim emas, balki odob, vatanparvarlik va insoniylikni ham o'rgatishi maqsadga muvofiq.

- yoshlarni sog'lom muhitda, yaxshi do'stlar davrasida bo'lishga undash muhim. Ta'lim muassasalarida hamkorlik, guruhii ishlash va ijobiy liderlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish lozim.

- O'quvchilarni ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlarida ishtirok ettirish orqali ularda rahm-shafqat va jamiyat oldidagi mas'uliyatni shakllantirish mumkin.

So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari iymon, ustoz-shogird munosabati, yaxshi hamroh tanlash va faqirlarni e'zozlash haqidagi qarashlari bilan bugungi tarbiya jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi. **Iymon** – yoshlarning ma'naviy tayanchi. **Ustoz va shogird** – ilm va odobni avlodidan-avlodga o'tkazuvchi eng mustahkam ko'prik. **Yaxshi hamroh** – insonni ezgulikka yetaklovchi eng katta ne'mat. **Faqirlarni qadrlash** – jamiyatda insonparvarlik va tenglikni qaror toptiruvchi fazilat. Ushbu g'oyalar nafaqat tasavvufiy meros sifatida, balki zamonaviy pedagogik tizim uchun ham **tarbiyaviy dastur** vazifasini bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. So'fi Olloyor "Sabotul ojizin", Rashid Zohid sharhi. Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2024. 38-39-betlar.
2. Shuhrat Sirojiddinov. "ILM VA TAHAYYUL SARHADLARI". Yangi asr avlodi. Toshkent -2011. 111-112-betlar
3. So'fi Olloyor "Maslak ul-muttaqin", Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li tarjimas. Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2023.40-b
4. Kutubxona.uz
5. Ziyonet.uz

TALABALARDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Djumanov Sherali Zakirovich,
Nomozova Latofat Sodiq qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
sherali.zhumanov.83@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar o'quv faoliyati samaradorligiga motivatsiyani ta'siri, talabalarda motivlarni shakllanishida psixologik xizmatning o'rni haqida nazariy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy qo'llab-quvvatlash, muloqot, motivatsiya, ijtimoiy muhit, pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat, psixologik xizmat.

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama kamol topishiga, mustaqil fikrlash, o'z hayotiga maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida tahsil

olayotgan yoshlarning intellektual, ijtimoiy-psixologik va ruhiy rivojlanishi ko'p jihatdan ularning motivatsiya darajasiga bog'liq. Motivatsiya – bu shaxsni faoliyatga undovchi ichki kuch bo'lib, u bilim olishga, o'zini anglashga va hayotda muvaffaqiyatga erishishga yo'naltiradi.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan jamiyatda yoshlarning o'z o'rnini topishi, barkamol shaxs bo'lib yetishishi uchun ichki motivatsiyaga ega bo'lishi muhim omil sifatida qaralmoqda. Shunday sharoitda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmatlarning roli beqiyosdir. Chunki aynan psixologlar yordamida talabalar o'z psixologik holatini anglaydi, o'zini baholash, o'z kuchiga ishonch, maqsad qo'yish va unga erishish kabi zaruriy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Davlatimiz rahbarining “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan fikrlaridan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati ham anglaniladi.

Shulardan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurtlaridagi zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Talabalik davri – inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo'lib, bunda shaxsiylik, mustaqillik, mas'uliyat va kasbiy shakllanish kuchli bosqichda kechadi. Shunday murakkab va mas'uliyatli davrda psixologik xizmat ko'rsatish orqali talabaning o'z oldiga maqsad qo'yishi, o'z imkoniyatlariga ishonchi va o'zini qadrlash hissi shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda talabaning o'quvga bo'lgan munosabati, ichki rag'bat, maqsad sari intilishi – ya'ni motivatsiyasi hal qiluvchi omilga aylanadi. Ammo, bugungi yoshlar orasida o'qishga nisbatan sust munosabat, o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik, ijtimoiy ta'sirlarga berilish holatlari motivatsiyaning pasayishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmatlar talabalarni ruhiy qo'llab-quvvatlash bilan birga, ularning ichki motivatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Psixologik xizmatlar nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki talabaning o'ziga bo'lgan ishonch, maqsad qo'yish, o'z-o'zini baholash kabi fazilatlarini rivojlantirish orqali motivatsion o'sishni ta'minlaydi.

O'quv faoliyati motivlari deganda o'quv faolligi namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar

va boshqalar tushuniladi. G.Rozenfeld o'qish motivatsiyasi shakllanishida quyidagi omillarning ahamiyati katta ekanini ko'rsatib o'tgan[2]:

1. Ta'lim olish uchun o'qish.
2. Ma'lum qiziqishlarsiz shunchaki o'qish.
3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o'qish.
4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o'qish.
5. Majburlab yoki qo'rqqanidan o'qish.
6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o'qish.

7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish.

8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim.

Amerikalik olimlar o'quv jarayonini anglab etilgan motivlar bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan mayl-istak masalalari bilan bog'lab o'rganganlar.

Ular o'quvchining ayrim xatti-harakatlariga qanday psixologik omillar ta'sir ko'rsatishini o'rganish orqali motivlashtirishning ayrim tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilganlar. Mazkur tadqiqotchi-olimlarni E.Torndaykning izdoshlari deb hisoblash mumkin.

E.Torndayk o'quv jarayonini u yoki bu qo'zg'atuvchiga (stimulga) javob reaksiyasining holati bilan bog'liqligini, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasidagi ma'lum aloqani o'rnatish bilan izohlanlanishini aytib o'tadi[3].

Bunday umumiy ta'rif unga ushbu aloqa hoh labirintdagi kalamushning harakatida, hoh insonning, aytaylik, sonlarni, ma'nosi yo'q bo'g'inlarni yod olayotganida yoki yumuq ko'z bilan chiziq tortayotgandagi xatti-harakatlarida qanday yuzaga chiqishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimi individual yondashuvga asoslangan bo'lib, har bir talabaning shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishni ko'zlaydi. Bunda ichki motivatsiyaning mavjudligi va uni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. O'quv jarayonida talabalar duch keladigan ruhiy bosim, o'ziga ishonchsizlik, kelajakdagi mavhumlik ularning motivatsiyasini pasaytiradi. Ana shunday sharoitda psixologik xizmatlar tizimi – talabaning psixologik holatini barqarorlashtirish va motivatsiyasini oshirishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimida motivatsiya – o'quv jarayonining yurak urushi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishi, faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi ko'p jihatdan uning motivatsiya darajasiga bog'liq[5].

Motivatsiyaning o'quv jarayonidagi asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Faollashtiruvchi – o'quvchini faoliyatga kirishishga undaydi;
- ✓ Yo'naltiruvchi – harakatni maqsad sari yo'naltiradi;
- ✓ Barqarorlashtiruvchi – tanlangan faoliyatda davom etishga yordam beradi;
- ✓ Regulyativ – o'quvchining o'zini boshqarish va baholashiga xizmat qiladi.

Motivatsiyasi yetarli bo'lgan talabalar o'quv materiallarini mustaqil o'rganadi, tanqidiy fikrlaydi va kasbiy jihatdan o'z ustida ishlashga intiladi. Aksincha, motivatsiyasi past bo'lgan talaba sustkashlikka beriladi, o'quv jarayonida qatnashmaydi yoki unga befarq bo'ladi.

Motivatsiya talabani maqsad sari yo'naltirish va faoliyatda davom etishga undashda asosiy omil hisoblanadi. Psixologik xizmat bu jarayonda quyidagi yo'llar bilan motivatsiyani shakllantirishga hissa qo'shadi:

➤ **Ichki motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar** — o'zini anglash, o'z maqsadini aniqlash va unga erishish yo'llarini o'rgatish;

➤ **Stressni boshqarish va relaksatsiya mashg'ulotlari** — o'quvdagi bosim va tashvishlarni kamaytirish, ruhiy barqarorlikni mustahkamlash;

➤ **Vaqtni boshqarish bo'yicha seminarlar** — samarali o'qish va dam olishni muvozanatlash;

➤ **Individual psixologik maslahatlar** — har bir talabaga mos yondashuv orqali ularning shaxsiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etish;

➤ **Guruhiy mashg'ulotlar va o'yinlar** — ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, guruhda hamkorlik va o'zaro yordamni rag'batlantirish;

➤ **Talabalarni rag'batlantirish tizimini yaratish** — ularning yutuqlarini e'tirof etish, baholash va motivatsion maqtoqlar tizimini yo'lga qo'yish.

Psixologik xizmatlar talabalarni nafaqat o'qishga, balki shaxs sifatida o'sishga ham yo'naltiradi. Bu esa ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshirib, motivatsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu o'z ichiga o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va qulay psixologik muhit yarata olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016.B-15.

2. Rosenfeld G. Theorie and praxis der lernmotivation. – Berlin, 1973. - 223 p.

3. Торндайк Э. Процесс учения у человека/ Пер. с англ. – М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1931.- 317 с.

4. G'oziyev E., Gaziyeva F. Umumiy psixologiya. Toshkent: Noshir, 2023. 656 b.

5. Ҳайдаров Ф.И. Қишлоқ мактаблари ўқувчиларида ўқиш мотивларини шакллантириш: психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: ТДПИ 1996.- 198 б.

6. Zakirovich D.S. TALABALARNI KASBIY O'Z-O'ZINI ANGLASHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI//World scientific research journal. – 2023. – T. 22. – №. 1. – C. 32-35.